

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAMANDAROVA GULNOZ YARASHOVNA

SON KOMPONENTLI O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING
SEMANTIK, LINGVOMADANIY VA STATISTIK TAHLILI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Filologiya fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора наук (DSc) по филологическим наукам

Content of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc) on philological sciences

Samandarova Gulnoz Yarashovna

Son komponentli o‘zbek xalq maqollarining semantik, lingvomadaniy va statistik tahlili..... 3

Самандарова Гулноз Ярашовна

Семантический, лингвокультурный и статистический анализ узбекских народных пословиц с числовым компонентом..... 29

Samandarova Gulnoz Yarashovna

Semantic, linguocultural and statistical analysis of Uzbek folk proverbs containing numerical components..... 61

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 66

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAMANDAROVA GULNOZ YARASHOVNA

SON KOMPONENTLI O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING
SEMANTIK, LINGVOMADANIY VA STATISTIK TAHLILI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/Fil978 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat universiteti (www.buxdu.uz/) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Jo'rayeva Bibish Muxsinovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Umurqulov Bekpo'lat
filologiya fanlari doktori, professor

Mamatov Abdug'afur Eshonkulovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Aynur O'z O'zjan
Anqara universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "24" avgust soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (2-991 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil " " avgust kuni tarqatiladi.
(2026-yil " " avgust dagi 23 - raqamli reyestr bayonnomasi).



B.E.Kilichev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.Y.Xojiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

G.I.Toirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi (DSc) annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tilshunoslikning rivojlanishida inson omilini markazga qo'ygan antroposentrik paradigma til va madaniyat o'zaro bog'liqligini yoritishga xizmat qiluvchi yangi yo'nalishlarning shakllanishiga asos bo'lmoqda. Ayniqsa, tilni xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati va milliy dunyoqarashi in'ikosi sifatida talqin etuvchi lingvokulturologiya inson tafakkurining milliy xususiyatlarini aniqlashda muhim o'rin egallaydi. Shu nuqtayi nazardan, maqollarning, xususan, son komponentli maqollarning lingvomadaniy tahlili xalq tafakkurining konseptual asoslarini ochib berish, sonlarning xalq og'zaki ijodidagi ramziy, estetik va semantik vazifalarini yoritish xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi hamda milliy tafakkur modellarini anglashda muhim omil hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida son komponentli maqollarni lingvokulturologik, semantik va statistik jihatdan chuqur tahlil qilish zarurati tobora ortib bormoqda.

Dunyo tilshunosligida son birliklari tildagi ramziy, konseptual va semantik ma'nolarning muhim ifodachisi sifatida tadqiq etilmoqda. Son komponentli maqollar millat tafakkurida an'anaviy ramzlar tizimi sifatida shakllanib, tildagi konseptual kategoriyalarni ochishda o'ziga xos semantik modellarni yaratadi. Zero, ularni lingvokognitiv, lingvomadaniy va statistik jihatdan o'rganish xalq tafakkurining universallik va milliylik jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Bunday maqollarni konseptual tahlil qilish til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yoritishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning mazmunini ochib berish dunyo paremiologiyasining ustuvor vazifasiga aylanmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda xalq og'zaki ijodi, xususan, maqollarni lingvokulturologik, kognitiv va statistik asoslarda tahlil qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. "...O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laonli joriy etishni ta'minlash"¹ lozimligi bejizga ta'kidlanmagan. Bu, o'z navbatida, maqollarni lingvistik jihatdan tahlil etish xalq tafakkuri va madaniyatini o'rganishda muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi hamda ularni tadqiq etish o'zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"; 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni// 2020-yil 20-oktabr.

“Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko’tarish to’g’risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Paremiologiya, paremiologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari hamda son komponentli maqollarning antroposentrik aspektdagi tadqiqiga oid ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, University of Oxford, University of Cambridge, London Metropolitan University (Buyuk Britaniya), University of Toronto (Kanada), Lomonosov Moscow State University, Saint Petersburg State University, Kazan Federal University, Moscow State Linguistic University (Rossiya), L.N. Gumilyov Eurasian National University, Al-Farabi Kazakh National University (Qozog‘iston), shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Andijon davlat universiteti hamda Buxoro davlat universitetida olib borilmoqda.

Paremiologiya va son komponentli maqollarni o‘rganish yo‘nalishida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan: paremiologik birliklarning struktur-semantik va funksional xususiyatlari, ularning til tizimidagi o‘rni hamda tasnif mezonlari ishlab chiqilgan (Rossiya FA V.V. Vinogradov nomidagi Rus tili instituti, Rossiya; Oksford universiteti, Buyuk Britaniya); maqollarning lingvokulturologik, konseptual va kognitiv xususiyatlari, ularda milliy qadriyatlar hamda madaniy kodlarning ifodalanish mexanizmlari yoritilgan (Alberta universiteti, Kanada; Kembrij universiteti, Buyuk Britaniya); paremiologik birliklarning diskursiv voqelanishi, kommunikativ-pragmatik imkoniyatlari hamda sotsiomadaniy funksiyalari aniqlangan (Toronto universiteti, Kanada; Rossiya FA Tilshunoslik instituti, Rossiya); maqollarda sonlarning ramziy, semantik va aksiologik vazifalari, ularning xalqning mifologik, diniy va etnomadaniy qarashlari bilan bog‘liqligi tavsiflangan (Moskva davlat universiteti, Rossiya; Qozoq milliy universiteti); paremiologik birliklarning konseptosfera, milliy mentalitet va madaniy xotira bilan uzviy aloqadorligi hamda ularning lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy jihatdan o‘rganilgan (Kembrij universiteti, Buyuk Britaniya; Yevroosiyo milliy universiteti, Qozog‘iston;

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.researchgate.com/>, <https://scholar.google.com/>, <https://www.academia.edu/>, <https://www.dissercat.com/>, <https://www.lingvolive.com/ru-ru>, www.dictionary.com, www.merriam-webster.com, <http://elibrary.udsu.ru>, <https://cheloveknauka.com>, www.science.org, www.healthline.com, <https://www.sciencedaily.com/>, www.scientificamerican.com, www.languageguide.org, www.urbandictionary.com va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston); maqollarning lisoniy, semantik, pragmatik va diskursiv xususiyatlari, shuningdek, ularning turli tillarda ifodalanish qonuniyatlari qiyosiy-tipologik aspektida tavsiflangan (Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya; Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti, Qozog'iston; Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbekiston).

Dunyo tilshunosligida hozirda, jumladan, quyidagi ilmiy izlanishlar ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralmoqda: paremiologik birliklarni, xususan, son komponentli maqollarni antroposentrik paradigma asosida o'rganish bo'yicha maqollarning konseptual mazmunini ochib berish, sonlarning ramziy va madaniy semantikasini lingvokulturologik hamda kognitiv yondashuvlar asosida tavsiflash, ularning milliy tafakkur, lisoniy ong va madaniy qadriyatlar bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash, paremiologik fondning konseptual modelini yaratish, maqollarni elektron korpuslar asosida tavsiflash, raqamli paremiologik bazalarni shakllantirish hamda korpus tilshunosligi va kompyuter lingvistikasi ehtiyojlari uchun son komponentli maqollarning formal-semantik modellarini ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida maqollarning lingvistik tahliliga oid salmoqli tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, V.I.Dal, V.N.Teliya, T.G.Bochina, O.A.Aksoy, G.D.Sidorkova, V.I.Postovalova, I.E.Timoshenko, O.B.Abakumova, N.R.Bayjanova, A.Dandis, Y.A.Jigarina, Y.N.Seliverstova, M.I.Shaxovich, A.P.Danilenko, R.Ekkert, H.Jason tadqiqotlarida paremalar, xususan, maqollar turli tomonlama tahlil qilingan³.

Dunyo tilshunosligida sonlar ishtirok etgan paremalar, frazeologizmlar ham talaygina olimlar tomonidan tadqiq etilgan: Shao Nansi, S.A.Shvachko, S.V.Olxovskaya, V.N.Toporov, N.Butinov, D.D.Voyvodich, Y.A.Gladsik, N.I.Demyanovich, L.P.Donilets, L.P.Smith, K.A.Menninger, E.A.Nida,

³ Даль В.И. Пословицы русского народа: сб. в 2т. / В.И. Даль – М.: Изд-во “Художественная литература”, 1984. Т. 1. – 383 с.; Т. 2. – 399 с.; Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты / В.Н. Телия. – М.: Школа: Языки русской культуры, 1996. 285 с.; Бочина Т.Г. Контраст как лингвокогнитивный принцип русской пословицы: Автореф.дис. док. филол. наук. –Казань, 2003. – 52 с.; Aksoy O. A. Atasozleri ve Deyimler Sozlugu.I Atasozleri Soz-lugii.-Ankara: Ankara Universitesi Basimevi, 1971. – S.392.; Сидоркова Г.Д. Прагматика паремий: пословицы и поговорки как речевые воздействия: автореф. диссер д-ра филол. наук / Г.Д. Сидоркова Краснодар: 1999. – 53 с.; Постовалова В.И. Лингвокультурология в свете антропологической парадигмы (К проблеме оснований и границ современной фразеологии) // Фразеология в контексте культуры. М.: Языки русской культуры, 1999.; Тимошенко И.Е. Литературные первоисточники и прототипы трехсот русских пословиц и поговорок / И.Е. Тимошенко – Киев: 1897. – 174 с.; Абакумова, О. Б. Пословичные концепты в паремическом дискурсе: дис. ... д-ра филол. наук : 10.02.01 и 10.02.19 / О.Б. Абакумова. – Орел, 2013. – 375 с.; Байжанова (Ойноткинова), Н. Р. Подходы к изучению пословиц / Н. Р. Байжанова (Ойноткинова) // Гуманитарные науки в Сибири. - 2007. - № 3.; Дандис, А. О структуре пословицы / А. Дандис // Паремииологический сборник. Пословица. Загадка (Структура. Смысл. Текст). Исследования по фольклору и мифологии Востока. - М. : Наука, 1978. – С. 13-34.; Жигарина Е.А. Современное бытование пословиц : вариативность и полифункциональность текстов : автореферат дис. ... канд. филол. наук : 10.01.09 / Е. А. Жигарина- М., 2006. – 25 с.; Селиверстова Е.Н. Русская пословица в паремииологическом пространстве: стабильность и вариативность: лингвистический аспект: автореф. дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.01 / Е. Н. Селиверстова. – Санкт-Петербург, 2010. – 47 с.; Шахович М.И. Русские пословицы и поговорки как исторический источник: (Тезисы диссертации на степень кандидата наук) / Шахович М.И.; Акад. наук СССР. – Ленинград, 1937. – 6 с.; Даниленко А.П. Союзное подчинение в языке русских пословиц и поговорок: Автореф. дис. канд. филол. наук. Л., 1973. – 20 с.; Eckert R. Aktuelle Probleme der Phraseologieforschung // Aktuelle Probleme der Phraseologie. Leipzig: Enzyklopadie, 1976. – S.24-46; Jason H. Proverbs in Society: The Problem of Meaning and Function // Proverbium. Bulletin d'information sur ies recherches paremiologique? Helsinki, 17, 1971. – P. 18-32.

V.V.Gorbasevich, M.A.Biryukova, Y.V.Bopp, L.R.Gizatullina,
V.V.Dubrovskaya, S.A.Jabotinskaya, N.L.Jukovskaya, A.B.Karasev,
M.M.Makovskiy, M.A.Pshibiyeva, V.N.Toporov, O.A.Davidova⁴.

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida maqollarga oid izlanishlar X.Abdurahmonov, M.Sadriddinova, B.Jo'rayeva, D.Turdaliyeva, D.Tosheva, Sh.Qalandarov, Y.Nurova, M.J.Sharipova⁵larning dissertatsiyasida o'z aksini topgan. Aynan raqam komponentli maqollarning tahlili esa quyidagi tadqiqotchilarning ishlarida qayd etilgan: A.S.Shakirov, M.X.Xalikova,

⁴ Шао Наньси. Нумеративные устойчивые выражения в русском языке. – Автореферат канд. филол. Наук, Воронеж, 2009. – 24 с.; Швачко С.А. Английские числительные и их место в лексико-семантическом поле количества. Автореф. дис. докт. филол. наук. – Киев, 1982. – С.41.; Ольховская С.В. О фразеологических единицах с компонентом-числительным. –В сб.: Лексико-грамматическая сочетаемость в германских языках, вып.2. –Челябинск: Изд-во Челябинский рабочий, 1977. – С. 74-79.; Топоров В.Н. О числовых моделях в архаичных текстах / В.Н. Топоров И Структура текста М.: “Наука”, 1980. – С. 3 – 58.; Бутинов Н. Один, два, три / Н. Бутинов. Знание – сила, 1980. –№9. -С. 42-43.; Войводиц Д. Д. Русская и сербская языковые картины мира через призму количественных отношений в поговорках / Д. Дарья Войводиц // Коммуникативное поведение славянских народов. Warszawa, 2007. – С. 167-184.; Гладских Е.А. Язык и культура: сакральность чисел (на материале русской и украинской фразеологии) / Е.А. Гладских // Языки и культура Вторая международная конф. Тезисы докл., Киев; 1993. – С.15-17.; Демьянович Н.И. Эмотивная функция компонента “семь” во фразеологических единицах и поговорках славянских языков / Н.И. Демьянович // Коммуникативно-прагматические аспекты фразеологии. – Волгоград, 1999. – С. 140-142.; Донилец Л.П. Гносеологическая природа числа как символа / Л.П. Донилец. – Автореферат канд. филол. Наук, СПб. 1995. – 17 с.; Smith L.P. Words and Idioms. Studies in the English Language. London, 1948. – 229 p.; Menninger K.A. Number words and number symbols. A cultural history of numbers. Cambridge, 1970. – 480 p.; Nida E.A. Componential Analysis of Meaning. Hague, 1975. – 272 p.; Горбацевич В.В. Нумерология теоретическая и практическая. – М.: Мир Урании, 2005. – 160 с.; Бирюкова М.А. Семантика количественности и средства ее представления в русском и английском языках (на материале произведений И. Бродского): автореф. дис... канд. филол. наук. Брянск, 2006. – 21 с.; Бопп Ю.В. Сопоставительный анализ английских числительных в составе паремнологических словосочетаний и их русских аналогов в дискурсе: автореферат дис... на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Сургут. 2009. – 28 с.; Гизатуллина Л.Р. Нумерологические фразеологические единицы в английском и татарском языках: Автореф. дис... канд. филол. наук. Уфа, 2004. – 24 с.; Дубровская В.В. Домен количества в лексико-семантическом пространстве английского языка: автореф. дис... канд. филол. наук. Нижний Новгород. 2015. – 32 с.; Жаботинская С.А. Когнитивные и номинативные аспекты класса числительных (на материале современного английского языка): автореферат дис... д-ра филолог. наук: – М., 1992. – 42 с.; Жуковская Н.Л. Категории и символика традиций и культуры монголов. – М.: Наука, 1988. – 198 с.; Карасев А.Б. Когнитивная обусловленность значений числительных в английских и испанских идиомах: Автореф. дис... канд. филол. наук. – М., 2005. – 22 с.; Маковский М.М. Язык – миф – культура: Символы жизни и жизнь символов // Вопр. языкознания. – 1997. – № 1. – С. 73- 95.; Пшибиева М.А. Прагматический аспект нумерологических фразеологических единиц (на материале русского, кабардино-черкесского, английского и французского языков) // Успехи современной науки. №9. Том 4. Белгород. 2016. – С. 11-14.; Давыдова О.А. Числительные в русских пословицах и поговорках. Специфика фольклорной лексики и фразеологии//Науч. труды Курского ГПИ, т. 186. Курск, 1978. – С. 15-27.

⁵ Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц поговорок: Автореф.дис.канд.филол.наук. –Т.: 1985. – 18 с.; Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол.фан.ном. ...дис. автореф. – Самарқанд, 2002. – 24 б.; Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис. ... докт.филол. наук. – Т.: 2007. – 286 с.; Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: фил.фан.доктори (DSc) дисс... – Самарқанд, 2019. – 237 б.; Турдалиева Д. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри.(PhD) дисс. – Қарши, 2019. – 136 б.; Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... – Т.: 2017. – 134 б.; Қаландаров Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси: Филол.фан. бўй. фалс. док. ... (PhD)дисс. – Қўқон. 2019. – 135 б.; Nurova Y.U. O'zbek xalq paremlarining etnolingvistik xususiyatlari (kiyim va oziq-ovqat nomlari asosida). Filol.fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... – Buxoro, 2022. – 149 b.; M.J.Sharipova. Chorva nomlari asosida shakllangan o'zbek xalq maqollarining lingvopoetik va uslubiyl xususiyatlari (“qo'y” lug'aviy ma'noviy guruhi asosida). Filol.fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... – Buxoro, 2023. – 144 b.

A.O.Abdirayimov, F.S.Bafojev, J.Sunnatov⁶. Mazkur tadqiqotlarda son ishtirokida maqollarning muayyan jihatlari o'rganilgan bo'lsa-da, tizimli ravishda son komponentli maqollarning semantik, lingvokulturologik va statistik tahlili monografik planda tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari" (2022-2026 y.y.) mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi son komponentli o'zbek xalq maqollarining semantik tuzilishi, lingvomadaniy mazmuni va statistik xususiyatlarini kompleks tahlil qilish orqali ularning xalq tafakkuri, milliy qadriyatlar tizimi hamda kognitiv konseptual maydondagi o'rnini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

paremiologiyada sonlarning o'zni va funksiyasini o'rganishga doir mavjud nazariy manbalarni tahlil qilish, son komponentli maqollarning paremiologiyadagi o'zni va ahamiyatini aniqlash;

o'zbek maqollarida son komponentlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini ishlab chiqish, ularni lingvosemantik, lingvokulturologik va statistik yondashuvlar asosida tahlil qilish tamoyillarini belgilash;

son ishtirok etgan maqollarda semantik yuklamaning lingvistik tabiatini tahlil qilish, son komponentlari orqali ifodalanadigan ma'nolarni (miqdoriy, mubolag'ali, qiyosiy, aksiologik) aniqlash;

son komponentli maqollarda statik va dinamik semantik strukturalarni tahlil qilish va funksional jihatdan farqlanishini aniqlash;

o'zbek xalq maqollarida sonlarning milliy-madaniy kod sifatidagi funksiyasini ochib berish, ularning xalq dunyoqarashidagi assotsiativ va semantik maydonini yoritish, lingvomadaniy funksiyalarini tahlil qilish;

o'zbek xalq maqollaridagi raqam komponentlarning umumiy chastota tahlilini o'tkazish, eng faol qo'llanilgan son birliklarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida son komponentli o'zbek xalq maqollari tanlangan. Tadqiqotga 2 jildli "O'zbek xalq maqollari", "Hikmatnoma", "Ma'nolar maxzani" kabi lug'atlar asos qilib olingan.

Tadqiqotning predmetini son komponentli o'zbek xalq maqollarining semantik tuzilishi, lingvokulturologik va statistik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsifiy (deskriptiv), qiyosiy-tipologik, kognitiv-lingvistik, lingvokulturologik, statistik, kontekstual tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

⁶ Шакиров А.С. Семантико-типологический анализ нумеративных фразеологических единиц в разносистемных языках. Автореф.дис. канд. филол. наук. –Самарканд,1983.– 24 с.; Xalikova M.X. Turli tizimli tillarda sonlar nominatsiyasining lingvomadaniy tavsifi. Filol.fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... – Buxoro, 2023. – 144 b.; A.O. Abdirayimov. O'zbek tilidagi sonlarning lingvokulturologik tadqiqi. Filol.fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... – Buxoro, 2025. – 132 b.; Bafojev F.S. The Symbolic Meanings of Numbers in Folk Proverbs (On the example of Uzbek and German Proverbs). International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding (IJMMU) Vol. 8, No. 4, April 2021. –P. 323-329.; Суннатов Ж. Турк адабиёти ва фольклорида ракамлар бадий раам сифатида: маг...дисс., –Т., 2013. – 56 б.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek xalq maqollaridagi son komponentlari semantik, lingvomadaniy va statistik xususiyatlar birligida yaxlit tizim sifatida numerologik-simvolik, obrazli-metaforik va aksiologik qatlamlarga tayanuvchi ko'p bosqichli ma'no strukturasi hamda ularning xalq tafakkurida borliqni raqamlar orqali konseptuallashtirish, etnomadaniy tajribani kodlashtirish va nutqiy-pragmatik ta'sirchanlikni ta'minlashga oid funksional vazifalari asoslangan;

son komponentli maqollar semantik struktura jihatidan statik (*Besh barmoq barobar emas*) va dinamik (*Bir kun janjal bo'lgan uydin qirq kun baraka ketar*) tiplari, ularning kognitiv asoslari lingvistik dalillar orqali izohlanishi natijasida sonlar vositasida shakllangan obrazlarning barqaror ma'no yadrosi va kontekstual o'zgaruvchanlik xususiyatlari aniqlangan;

o'zbek xalq maqollaridagi sonlar milliy-madaniy kod sifatidagi xususiyatlari (*"Bir" soni birlik va haqiqat timsoli, "ikki" soni muvozanat va ziddiyatning ramzi, "yetti" soni esa muqaddaslik va marosimiy barqarorlik belgisi va h.k.*), ularning xalq dunyoqarashi, milliy qadriyatlar tizimi, etnomadaniy tafakkurdagi o'rni, ramziy-semantik funksiyalari hamda boshqa xalqlar paremiologiyasi bilan qiyosda namoyon bo'ladigan madaniyatlararo semantik o'xshashlik va milliy-madaniy tafovutlari dalillangan;

son komponentli maqollar statistik tahlildan o'tkazilib, ular orasida raqamlarning chastotasi (*eng yuqori chastotali sonlar: 1, 2, 1000; o'rta chastotali sonlar: 7, 6, 40, 100, 10, 5; past chastotali sonlar: 3-9, 30-90 oralig'idagi birliklar; eng kam uchragan sonlar: 20, 32*), struktur-tipologik xususiyatlari (*maqol boshida sonlar 42,1% (362 ta), o'rtasida 52% (447 ta) va oxirida 5,9% (51 ta)*) hamda ma'no tarmoqlanishi isbotlangan;

o'zbek maqolshunosligida son komponentlarini tadqiq etishning metodologik tamoyillari (*semantik, kognitiv-lingvistik, etno-mental, struktur-kompozitsion, diskursiv-pragmatik, assotsiativ, korrelyatsion va statistik yondashuvlar*) yangicha konseptual asosda ishlab chiqilishi natijasida semantik, lingvomadaniy va statistik tahlilni integratsiyalashgan metodika sifatida qo'llashning ilmiy-nazariy va metodik imkoniyatlarini yagona tahliliy tizim doirasida izchil yoritishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

son komponentli o'zbek xalq maqollarining lingvosemantik, lingvomadaniy va statistik tahlili asosida xalq tafakkurida sonlar ifodalagan ramz, qadriyat va dunyoqarashni talqin etuvchi lingvokulturologik yondashuvlar tilshunoslik, madaniyatshunoslik va lingvostatistika yo'nalishidagi tadqiqotlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi dalillangan;

o'zbek xalq maqollarida qo'llanilgan son birliklarining semantik strukturalari, ularning madaniy kodlari va sotsiopragmatik funksiyalarini tahlil qilish natijasida xalqning kognitiv tasavvurlari va milliy identitetini o'rganishga qaratilgan ilmiy ishlarda foydalanish imkoniyatlari asoslangan;

son komponentli maqollar bo'yicha tuzilgan statistik ma'lumotlar va ularning lingvomadaniy tipologiyasi o'zbek tilining paremiologik lug'atini

yaratish, elektron korpuslarni boyitish hamda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan amaliy manba sifatida foydalanish uchun samarali vosita ekanligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi birlamchi ilmiy-uslubiy manbalarga tayanilganligi, olingan tadqiqot natijalarining aniqligi va ishonchliligi, chiqarilgan xulosalarning tavsifiy (deskriptiv), qiyosiy-tipologik, kognitiv-lingvistik, lingvokulturologik, statistik, kontekstual tahlil orqali dalillanganligi, "O'zbek xalq maqollari", "Hikmatnoma", "Ma'nolar maxzani" kitoblari materiallari asosida tahlil hamda talqin qilinganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek paremiologiyasida son komponentli maqollarni yangi integrativ yondashuvi, ularning semantik, lingvomadaniy va statistik tahlilini yagona ilmiy tizimda amalga oshirish imkonini bergani, xalq tafakkurida aks etgan qadriyatlar, milliy kodlar va madaniy ramzlarning lisoniy ifodasi, ramziy, estetik va semantik muammolarini yechishda muhim manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim tizimida "Paremiologiya", "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Pragmalingvistika", "Uslubiyat", "Sotsiolingvistika", "Lingvokulturologiya", "Matn lingvistikasi" fanlari bo'yicha o'quv adabiyotlarini tayyorlash, elektron maqollar korpuslarini yaratish hamda xalq tafakkuridagi sonlarning lingvokulturologik mazmunini o'rganishga qaratilgan ta'limiy dasturlar ma'ruza, amaliy, seminar mashg'ulotlari, maxsus kurslarni o'tishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Son komponentli o'zbek xalq maqollarining semantik, lingvomadaniy va statistik tahlili mavzusi doirasida olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

o'zbek xalq maqollaridagi son komponentlari semantik, lingvomadaniy va statistik xususiyatlar birligida yaxlit tizim sifatida numerologik-simvolik, obrazli-metaforik va aksiologik qatlamlarga tayanuvchi ko'p bosqichli ma'no strukturasi hamda ularning xalq tafakkurida borliqni raqamlar orqali konseptuallashtirish, etnomadaniy tajribani kodlashtirish va nutqiy-pragmatik ta'sirchanlikni ta'minlashga oid funksional vazifalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazida 2024–2025-yillarda bajarilgan ALM-202310132634 raqamli "Yangi so'z va atamalarning o'zbekcha muqobilini sun'iy intellekt asosida avtomatik taqdim qiluvchi atamacom.uz dasturiy ta'minoti platformasi va mobil ilovasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazining 2025-yil 4-dekabrdagi PN57237554-2317-son ma'lumotnomasi). Natijada son komponentli o'zbek xalq maqollarining semantik, lingvomadaniy va statistik jihatdan kompleks tahlili leksik-semantik jarayonlarni avtomatlashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirgan;

son komponentli maqollar semantik struktura jihatidan statik (Besh barmoq barobar emas) va dinamik (Bir kun janjal bo'lgan uydan qirq kun baraka ketar) tiplari, ularning kognitiv asoslari lingvistik dalillar orqali izohlanishi natijasida sonlar vositasida shakllangan obrazlarning barqaror ma'no yadrosi va kontekstual o'zgaruvchanlik xususiyatlariga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazida 2022–2023-yillarda bajarilgan II-4721101717-raqamli “Xizmat ko'rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazining 2025-yil 4-dekabrda EQ63499544-2316-son ma'lumotnomasi). Natijada, sonlarga asoslangan xalq maqollarining mazmuniy qatlamlari va ularni tashkil etuvchi konseptual mexanizmlar loyiha doirasidagi amaliy vazifalarning samarali bajarilishiga xizmat qilgan;

o'zbek xalq maqollaridagi sonlar milliy-madaniy kod sifatidagi xususiyatlari (“Bir” soni birlik va haqiqat timsoli, “ikki” soni muvozanat va ziddiyatning ramzi, “yetti” soni esa muqaddaslik va marosimiy barqarorlik belgisi va h.k.), ularning xalq dunyoqarashi, milliy qadriyatlar tizimi, etnomadaniy tafakkurdagi o'rni, ramziy-semantik funksiyalari hamda boshqa xalqlar paremiologiyasi bilan qiyosda namoyon bo'ladigan madaniyatlararo semantik o'xshashlik va milliy-madaniy tafovutlariga oid xulosalardan 2024–2025-yillarda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Buxoro” viloyati teleradiokanalining “Assalom, Buxoro”, “Najot bilimda”, “Sakkizinchi mo'jiza” teleeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 2-dekabrda 01-09-269-son ma'lumotnomasi). Natijada son komponentli maqollar ko'rsatuvlarning g'oyaviy-uslubiy sifatini oshirishga samarali xizmat qilgan;

son komponentli maqollar statistik tahlildan o'tkazilib, ular orasida raqamlarning chastotasi (eng yuqori chastotali sonlar: 1, 2, 1000; o'rta chastotali sonlar: 7, 6, 40, 100, 10, 5; past chastotali sonlar: 3-9, 30-90 oralig'idagi birliklar; eng kam uchragan sonlar: 20, 32), struktur-tipologik xususiyatlari (maqol boshida sonlar 42,1% (362 ta), o'rtasida 52% (447 ta) va oxirida 5,9% (51 ta) hamda ma'no tarmoqlanishiga oid xulosalardan Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik, Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun yaratilgan “O'zbek tili tarixi” nomli darslikda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-son buyrug'i, 915635-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada frazeologiya va paremiologiya bo'limiga oid ma'lumotlar ilmiy jihatdan boyib, darslik takomillashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 6 ta jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 27 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta monografiya, 2 ta darslik,

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola (shu jumladan, 10 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovadan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 257 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida ishning dolzarbligi, mavzu yuzasidan xorijiy ilmiy adabiyotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning metodologik va nazariy asoslari, ilmiy faraz, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot metodlari, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi, ishning sinovdan o‘tishi, natijalarning e‘lon qilingani, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O‘zbek xalq maqollarida sonlarning o‘rni: nazariy va metodologik asoslar”** deb nomlanadi. Bobning birinchi *“Paremiologik birliklarda raqamlar ishtiroki”* faslida paremiologik birliklar tarkibidagi sonlarning o‘ziga xos jihatlari, diskursdagi roli, jahon va o‘zbek tilshunoslarining bu sohadagi qarashlari o‘rganildi.

Zamonaviy paremiologik yondashuvlarning maqollarni faqat tildagi tayyor andoza shakl sifatida emas, balki dinamik kognitiv birlik sifatida talqin qilishi, ayniqsa, o‘zbek xalq maqollarining mazmuniy va kommunikativ imkoniyatlarini yanada chuqurroq tahlil qilishga zamin yaratadi. Haqiqatan ham G.Lakoff va M.Jonson tomonidan ilgari surilgan konseptual metafora nazariyasi⁷ asosida qaralganda, o‘zbek maqollarida namoyon bo‘ladigan timsollar, obrazlar va raqamlar orqali shakllangan semalar inson ongidagi ko‘plab tushunchalarni tartibga soluvchi kognitiv mexanizmlar sifatida xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida paremiologik izlanishlar XX asrning ikkinchi yarmida jadallik bilan rivojlangan bo‘lib, avvalambor, xalq og‘zaki ijodining janr-mavzu xususiyatlari, struktur qurilishi, badiiy obrazlari, ritmik-fonetik tomonlari tadqiq qilingan. Bu yo‘nalishda A.S.Shakirov, M.X.Xalikova, A.O.Abdirayimov, F.S.Bafojev, J.Sunnatov⁸ singari tadqiqotchilar muhim ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ushbu tadqiqotlarda xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, maqollarning janr xususiyatlari, tematik tasnifi, struktura sathlari va

⁷ Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 40–45.

⁸ Шакиров А.С. Семантико-типологический анализ нумеративных фразеологических единиц в разнотипных языках. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Самарканд, 1983. – 24 с.; Xalikova M.X. *Turli tizimli tillarda sonlar nominatsiyasining lingvomadaniy tavsifi*. Filol.fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss... – Buxoro, 2023. – 144 b.; Abdirayimov A.O. *O‘zbek tilidagi sonlarning lingvokulturologik tadqiqi*. Filol.fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss... – Buxoro, 2025. – 132 b.; Bafojev F.S. *The Symbolic Meanings of Numbers in Folk Proverbs (On the example of Uzbek and German Proverbs)*. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding (IJMMU) Vol. 8, No. 4, April 2021. – P. 323-329; Суннатов Ж. *Турк адабиёти ва фольклориди рақамлар бадийи рамз сифатида*: Маг...дисс., –Т., 2013. – 56 б.

obrazlilik mezonlari tahlil qilingan bo'lsa-da, raqam komponentli maqollar maxsus tadqiqot obyektiga aylangan hollari kam uchraydi.

Maqollarda sonlar quyidagi asosiy vazifalarda reallashadi:

1. *Umumlashtiruvchi vazifa.* Ayrim sonlar, ayniqsa, “bir”, “ikki”, “uch”, “yetti”, “o'n”, “qirq”, “yuz” – xalq tafakkurida aniq predmetlar emas, balki umumiy tushunchalar, abstraksiyalarni bildiradi.

2. *Tartib va ketma-ketlik vazifasi.* Maqollarda sonlar voqealarning tartibli rivojlanishini yoki odob-me'yorni belgilovchi normativ timsollar sifatida namoyon bo'ladi. Sonlar orqali voqelikdagi hodisa yoki harakatlarning ketma-ketligi, bosqichma-bosqich rivojlanishi va axloqiy-odobiy tartib belgilanadi.

3. *Aksiologik-baholovchi vazifa.* Ko'p sonlar (“ming”, “yuz”, “o'n ming”) ko'pincha ulug'lik, katta qiymat, ahamiyat, darakning ta'sir kuchini oshirish uchun ishlatiladi.

4. *Simvolik va arxetipik vazifa.* Ko'plab raqamlar turli xalqlarda va madaniyatlarda timsoliy (arxetipik) ma'noga ega. Bu sonlar diniy, mifologik va madaniy konnotatsiyalar bilan bog'liq.

5. *Ritmik va poetik vazifa.* Maqollarda sonlar metrik strukturani barqarorlashtiradi. Bu esa ularning og'zaki nutqda saqlanib qolishini, avloddan avlodga o'tishini osonlashtiradi. Maqollarda sonlar og'zaki nutqdagi ohangdorlik, metrik barqarorlik va esda qoluvchanlikni kuchaytirish uchun ishlatiladi.

Mazkur bobning “*Dunyo tillarida son komponentli maqollar tipologiyasi*” nomli ikkinchi faslida son komponentli maqollarning turli tillardagi (ingliz, rus, fransuz, nemis) tipologik modellari, semantik-funksional xususiyatlari, strukturaviy andozalari tahlil qilingan.

Xalq maqollarida sonlar, asosan, mental stereotiplar, tarixiy madaniy urf-odatlar va ma'rifiy-ijtimoiy me'yorlar bilan chambarchas bog'liq tarzda ishlatiladi. Jumladan, Yevropa va Osiyo tillarida tez-tez uchraydigan “uch”, “yetti”, “o'n ikki” kabi sonlar xalqlarning diniy va mifologik merosi bilan asoslangan. Masalan, Yaponiyada “3, 5, 7” sonlari “Shichi-Go-San” bolalar marosimida muqaddaslik ramzi bo'lib xizmat qiladi, Xitoyda “8” soni farovonlik timsolidir. Germaniya, Norvegiya va Islandiya folklorida “7” va “13” sonlari “baxt va baxtsizlik aralashuvi” bilan bog'liq timsollar sifatida qayd etiladi⁹.

Ingliz paremiologiyasida son komponentli maqollar, asosan, uchta asosiy sintaktik-funksional model asosida shakllangan:

1. *Enumerativ model (sanovchi struktura)* – “Two things are infinite: the universe and human stupidity” – Ikki narsa cheksiz: koinot va inson aqlsizliklari. Bu maqolda son kuchli umumlashtiruvchi (filosofik) yuklamaga ega. O'zbek tilida bunday hajm va umumiylikdagi maqol yo'q, biroq ma'nodosh xalq iboralari mavjud: “Koinot keng, insonning ishi yanada g'alati”.

2. *Komparativ model (taqqoslovchi struktura)* – “Two heads are better than one” – “Bir boshdan ikki bosh afzal”. Bu maqolda son “two” jamoaviy fikrlashning afzalligini bildiradi. O'zbek tilidagi “Bir kalla – kalla, ikki kalla – tilla” maqoliga yaqin turadi.

⁹ Dundes A. Interpreting Folklore. Indiana University Press. 1980. – P. 103–112.

3. *Ordo-strukturaviy model (ritmik-sonli strukturaviy birlik)* – “Third time’s the charm” – “Uchinchi urinish omad keltiradi”. Bu maqolda “three” soni bardavom harakat va natijaga erishish ramzi sifatida ishlatilgan.

Rus tilida son komponentli maqollar xalq tafakkurining barqaror semantik modellari sifatida til tizimi va madaniyatida alohida o‘rin egallaydi. Ushbu maqollarda ko‘pincha xalqning tarixiy tajribasi, ma‘naviy qadriyatlari va axloqiy me‘yorlari ramziy-sonli struktura orqali ifodalanadi. Raqamlar rus paremiologiyasida, asosan, metaforik timsol, semantik kuchaytiruvchi, etnografik belgi va kognitiv me‘yor sifatida faol ishlatiladi¹⁰.

Fransuz tilida sonlar tarixan nafaqat hisob-kitob bilan bog‘liq pragmatik vazifani, balki rim-katolik urf-odatlarini, diniy ramz, aristokratik tafakkur modeli bilan uzviy aloqador semantik yuklamani ham olgan. Masalan, “trois” (uch) soni – muqaddas uchlik (la Sainte-Trinité) timsoli, “sept” (yetti) – yetti gunoh (sept péchés capitaux), “quarante” (qirq) esa najot, sinov yoki poklanish davri (kabi ramziy) ma‘nolarni o‘zida mujassam etadi. Shu bilan birga, zamonaviy davrga kelib, fransuz maqollarida sonlar ko‘pincha baholovchi, umumlashtiruvchi yoki ogohlantiruvchi kommunikativ vazifalarni ham bajara boshlagan.

Nemis paremiologiyasida raqamlar, odatda, semantik jihatdan yukli birliklar sifatida ishtirok etadi. Ular son bildiruvchi oddiy kvantifikator emas, balki abstrakt tushunchalarning obrazli shakllanishi, ya‘ni kognitiv konseptualizatsiya vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu bobning uchinchi fasli “*O‘zbek maqollarida son komponentlarni tadqiq etishning metodologik asoslari*” deb nomlangan. Mazkur bo‘limda tadqiqot ishida metodologik asoslarning asosiy turlari yoritilib, har bir metod maqollardagi sonlarning qanday ma‘no qatlamlarini ochib berishga xizmat qilishi, ular orqali qanday kognitiv va madaniy xulosalar chiqarilishi mumkinligi misollar asosida ko‘rsatilgan.

Semantik tahlil orqali sonlarning leksik, denotativ va konnotativ ma‘nolari, shuningdek, ularning ramziy, mublag‘ali va baholovchi semantik yuklamalari aniqlanadi. Kognitiv-lingvistik yondashuv sonlarning metaforik asosda umumlashtirilgan konseptlarni ifodalash mexanizmini ochib berib, maqollarda miqdoriy emas, balki kognitiv va konseptual ma‘no ustuvorligini ko‘rsatadi. Etno-mental tahlil son komponentlarini xalq mentaliteti, tarixiy tajriba, diniy qarashlar va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq holda izohlab, ularning milliy ong va kollektiv xotira bilan aloqasini yoritadi. Struktur-kompozitsion yondashuv paremiologik birliklarning ichki tuzilmasi, komponentlararo munosabatlar hamda elliptik va metaforik qurilishlarini tahlil qilishga xizmat qiladi. Diskursiv-pragmatik metod maqollarning nutqiy vazifasi, kommunikativ maqsadi va kontekstual ta‘sirini aniqlab, ularni ijtimoiy nutq amaliyotining faol vositasi sifatida talqin etish imkonini beradi. Assotsiativ tahlil sonlarning inson ongida shakllanadigan psixik va emotsional tasavvurlar bilan bog‘liqligini ochib bersa, statistik va korrelyatsion metodlar son komponentli maqollarning tarqalish

¹⁰ Пермяков Г. Л. Основы структурной паремиологии. – М.: Наука, 1988. – С. 134–140.

chastotasi hamda funksional xususiyatlarini empirik asosda belgilashga imkon yaratadi.

Dastlabki bobning so‘nggi to‘rtinchi *“O‘zbek tilida son komponentli maqollarning tarixiy ildizlari”* nomli faslida o‘zbek tilidagi son komponentli maqollarning tarixiy ildizlari hamda semantik taraqqiyoti kompleks tarzda tahlil qilingan. Unda sonlarning qadimiy turkiy mifologik tasavvurlar, urug‘-qabila tuzilmasi va davlat boshqaruvi tizimi bilan bog‘liqligi, xususan Bilga xoqon bitigi misolida *“uch”*, *“yetti”*, *“to‘qqiz”*, *“qirq”* kabi sonlarning muqaddas va arxetipik ma‘no kasb etgani yoritilgan. Shuningdek, islomiy tafakkur ta‘sirida sonlarning diniy-axloqiy konnotatsiyalar bilan boyishi, paremiologik birliklarda mubolag‘a, umumlashtirish, ritmik-sintaktik barqarorlik va poetik parallelizm hosil qiluvchi vosita sifatida qo‘llanishi asoslab berilgan. Kognitiv yondashuv nuqtayi nazaridan sonlarning abstrakt tushunchalarni konkretlashtiruvchi metaforik model sifatida talqin etilishi (G.Lakoff va M.Jonson qarashlari asosida), ularning jamoaviy xotira, psixologik-barqaror stereotiplar, gender va ijtimoiy normalarni shakllantirishdagi roli ham ochib berilgan. Umuman olganda, son komponentli maqollar o‘zbek xalqining tarixiy, diniy, ijtimoiy va madaniy tafakkur qatlamlarini mujassam etgan ko‘p funksiyali lingvosemiotik va lingvomadaniy birliklar ekani ilmiy jihatdan umumlashtirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbek tilida son komponentli maqollarning lingvosemantik xususiyatlari”** deb nomlanib, uch fasldan iborat. Birinchi fasl *“Son komponentli maqollarda semantik yuklamaning lingvistik tabiati”* deb nomlanadi. Ushbu faslda maqollar tarkibida qo‘llangan sonlarning ikki asosiy semantik qatlamni – denotativ va konnotativ ma‘nolarni ifodalashi tahlil qilingan.

Denotativ ma‘no – bu son komponentining bevosita, lug‘aviy ma‘nosini ifodalovchi qatlam bo‘lib, u real miqdoriy ko‘rsatkichni yoki aniq hisob birligini bildiradi. O‘zbek xalq maqollarida sonlarning denotativ qo‘llanilishi, ko‘pincha, voqelikdagi real miqdoriy munosabatlarni aniq tasvirlash orqali yuzaga chiqadi. Bunday holatda son o‘zining asosiy arifmetik vazifasini bajaradi va mazmunga bevosita miqdoriy aniqlik kiritadi. Masalan, *“Ot to‘rt oyoqli bo‘lsa ham qoqiladi”* maqolida *“to‘rt”* soni hayvonning real anatomik tuzilishiga asoslanib, haqiqatni denotativ tarzda bildiradi. Bu esa mukammal bo‘lgandek ko‘ringan mavjudot ham xato qilishi mumkinligini mantiqiy asoslaydi.

Konnotativ ma‘no – bu til birligining (shu jumladan, maqollardagi son komponentining) lug‘aviy-denotativ ma‘nosidan tashqari qo‘shimcha ma‘no qatlamidir. U so‘zning yoki iboraning qo‘llanish kontekstida yuzaga keladigan baholash, hissiy, ekspressiv va madaniy-assotsiativ xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Son komponentli maqollarda konnotatsiya, odatda, to‘rt asosiy tarkibiy qismda namoyon bo‘ladi:

1. *Baholovchi-emotsional konnotatsiya* – tinglovchida ijobiy yoki salbiy hissiy reaksiya uyg‘otish orqali ma‘lum xulq-atvor yoki fazilatga baho beradi. Bu guruhdagi maqollarda sonlar vaziyatning keskinligi, ahamiyati yoki davomiyligini kuchaytirish vositasidir. Masalan, *“Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi*

zo‘r mingni yiqar” maqolida “ming” soni bilimning kuch-qudratini ifodalashda kuchli baholovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

2. *Madaniy va tarixiy konnotatsiya* – tarixiy, etnik va madaniy an‘analardan kelib chiqqan tasavvurlar. Madaniy va tarixiy konnotatsiyalar – ayrim sonlar o‘zbek xalqining mifologik, diniy va tarixiy tajribasida muqaddas yoki ramziy ahamiyat kasb etadi. Masalan, “uch”, “yetti”, “qirq” sonlari bunga yorqin misol bo‘ladi. Ushbu sonlar qadimiy mifologik tasavvurlar, islomiy an‘analar hamda marosimlar tizimida shakllangan assotsiativ fondga ega. Masalan, “Bir kun tuz ichgan joyga – qirq kun salom” maqolida “qirq” soni minnatdorlik va sadoqatning davomiyligini bildiradi.

3. *Metaforik va ramziy konnotatsiya* – bu turdagi maqollarda sonlar ko‘pincha abstrakt tushunchalarni, umumlashtirilgan miqdoriy ko‘rsatkichlarni yoki mubolag‘a, chegarasizlikni anglatadi. Metaforik va ramziy konnotatsiyada sonlar ko‘pincha aniq miqdorni emas; balki ko‘plik, ozlik, cheklanganlik yoki keskinlik kabi mavhum tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, “Bir mayizni qirq kishi bo‘lib yebdi” maqolida “qirq” soni haddan tashqari bo‘linishni, ya‘ni juda kam resursni ko‘p kishiga bo‘lish orqali saxiylik, totuvlik va hamjihatlikka ishora qiladi.

4. *Pragmatik konnotatsiya* – bu guruhdagi maqollar tinglovchiga bevosita ta‘sir ko‘rsatish, uni ogohlantirish, yo‘naltirish yoki kuldirish maqsadida tuzilgan bo‘ladi. Bunda sonlarning tanlanishi orqali tinglovchiga bevosita ta‘sir ko‘rsatish, uni ogohlantirish, ishontirish yoki ma‘lum xatti-harakatga undash uchun xizmat qiladi. Masalan, “Bir so‘zla, qirq tingla” maqolida “qirq” soni ehtiyotkorlik va diqqatning zarurligini ta‘kidlaydi.

Shuningdek, mazkur faslda real va simvolik sonlar o‘rtasidagi semantik tafovut yoritilgan bo‘lib, ayniqsa, “uch”, “yetti”, “qirq”, “ming” sonlarning ramziy ma‘nolari maqollar misolida batafsil tahlil qilingan.

Bobning ikkinchi fasli “*Raqam komponentli maqollar semantik strukturasi umumiy xususiyatlari*” deb nomlanadi. Raqamlar ishtirokidagi maqollarni o‘rganishda semantik tarmoq tushunchasi yordamida ularning ma‘no maydonini, ya‘ni qanday umumiy semantik yo‘nalishda faoliyat ko‘rsatayotganini aniqlash mumkin. Quyida sonlar atrofida shakllangan asosiy semantik tarmoqlar misollari bilan keltiriladi:

1. *Umumlashtiruvchi va mubolag‘ali semantik tarmoq*. Bu tarmoqqa “ming”, “yuz”, “o‘n ming” kabi sonlar kiradi. Ular, ko‘pincha, ko‘plik, nisbiylik, qadriyatni oshirish ma‘nosida qo‘llanadi. Masalan, “Yuzta ko‘z bo‘lsa, mingta quloq”. Ushbu maqol o‘zbek xalq tilida sonlar orqali ifodalangan mubolag‘ali va umumlashtiruvchi semantik tarmoqlarning yorqin timsollaridan biridir.

2. *Aksiologik (baholovchi) semantik tarmoq*. Bu guruhga taalluqli sonlar insoniy qadriyat yoki axloqiy me‘yorlarni baholashda xizmat qiladi. Masalan: “bir” – muhimlik, “ikki” – ikkilanish va h.k. Aksiologik (baholovchi) semantik tarmoq doirasida sonlar orqali insoniy xatti-harakatlarga, ijtimoiy qadriyatlarga, axloqiy mezonlarga baho beriladi. Bu jarayonda sonlar real miqdor emas, balki baholovchi mezon sifatida qo‘llanadi. “Bir boshqoq don – bir savat non” maqolida

“bir” soni mehnatning qadri, mehnat mahsulining barakasi va uning yuksak ijtimoiy qiymatini bildiruvchi semantik birlik sifatida qatnashadi.

3. *Ketma-ketlik va vaqt tarmogʻi*. Bu tarmoqda sonlar tartib va vaqt birliklari sifatida qoʻllanadi, masalan: “birinchi”, “ikkinchi”, “har uch kunda”, “yetti kun” kabi. “Bir qoʻrqqan it uch kun hurar”. Mazkur maqolda “uch” soni voqea yoki taʼsirning vaqt davomiyligini bildiruvchi tartibli son sifatida ishlatilgan. Bu son orqali xalq donishmandligi psixologik reaksiyaning vaqt oraligʻini tasvirlashga harakat qiladi.

4. *Arxetipik va timsoliy tarmoq*. Bu tarmoqda “3”, “7”, “9”, “40” kabi sonlar muqaddas, ramziy, mifologik maʼnolar kasb etadi. “Bir kun janjal boʻlgan uydan qirq kun baraka ketar”. “Qirq” – qadimiy arxetip sifatida tozalash, oʻtish, yangilanish semantik maydoniga ega. Mazkur maqolda “qirq” soni real vaqt oʻlchovi emas, balki xalq tafakkurida shakllangan ramziy, arxetipik birlik sifatida ishtirok etadi.

5. *Simmetrik-parallel semantik tarmoq*. Bu tarmoqda sonlar ritmik, parallel struktura tashkil etuvchi komponentlar sifatida ishlatiladi. “Bir kalla – bir kalla, ikki kalla – ikki kalla” kabi formulalar xalq ogʻzaki ijodida keng qoʻllanadi.



“2.1-rasm”. Son komponentli maqollarda semantik tarmoqlar ifodasi

Bobning uchinchi fasli “*Son komponentli maqollarda statik va dinamik semantik strukturalar*” deb nomlanadi. Mazkur paragrafda son komponentli maqollar semantik strukturasining ikki asosiy shakli farqlanadi: statik semantik struktura va dinamik semantik struktura. Statik semantik struktura – maʼno jihatdan barqaror, oʻzgarmas va kontekstdan qatʼi nazar bir xil talqin etiladigan birliklardir. Ular koʻpincha umumlashtirilgan hayotiy tajribani, doimiy qoidalarni yoki qadimiy eʼtiqodlarni aks ettiradi. Dinamik semantik struktura esa vaziyatga, nutq kontekstiga yoki qoʻllanish maqsadiga qarab maʼno diapazonini oʻzgartirishi, metaforik yoki assotsiativ talqinlar hosil qilishi bilan ajralib turadi.

I. *Statik semantik struktura*: statik maqollarda voqea yoki harakat oʻzgaruvchan emas; doimiy holat, umumiy xulosa, psixologik yoki axloqiy baho berilgan boʻladi.

1. “Ot, bir qilig‘i yot”. Bu maqolda “bir” soni real miqdor emas, balki “kam, yagona” ma’nosida qo‘llanib, ramziy yuklama kasb etadi. Maqol mazmuni – hatto eng yaxshi, tanish yoki ishonchli bo‘lgan narsa ham (bu yerda ot) bir marta bo‘lsa-da, kutilmagan yoki noodatiy xatti-harakat qilishi mumkinligi haqida. Maqolda harakat yoki vaqt jarayoni tasvirlanmagan, aksincha, umumiy hayotiy haqiqat bayon qilingan. Shu bois, u statik tuzilishga ega: vaziyat o‘zgarmaydi, doimiy qoida sifatida ifodalanadi. → Statik baho.

2. “Besh barmoq barobar emas”. Bu maqolda barmoqlar orqali insonlar orasidagi tengsizlik doimiy haqiqat sifatida bayon etilgan. → Holat barqaror.

3. “Yetti kitobdan bir sinalgan tajriba afzal”. Bu yerda qiyosiy baho berilgan, hech qanday vaqt, harakat yoki ketma-ketlik yo‘q. → Statik taqqoslash.

II. Dinamik semantik struktura: Dinamik maqollarda voqea harakati, vaqt o‘tishi, sabab-oqibat bog‘liqligi mavjud bo‘ladi. Ma’no o‘zgaruvchan jarayon orqali anglashiladi.

1. “Uch kishi bilgan sirni yuz kishi bilar”. Bu maqolda sir tarqalishi jarayoni tasvirlangan: vaqt o‘tishi bilan sir ommaga ayon bo‘ladi. → Dinamik harakat.

2. “Bir kun janjal bo‘lgan uydan qirq kun baraka ketar”. Voqea (janjal) → natija (baraka yo‘qolishi). Bu vaqt oralig‘i va oqibat bo‘yicha dinamik model. → Sabab-oqibat munosabati.

3. “Bir qo‘rqan it uch kun hurar”. Ruhiy zarbaning vaqt mobaynida saqlanishi. Ma’no psixologik jarayon orqali rivojlanadi. → Davomiylik mavjud.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Son komponentli maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari”** deb nomlanib, uchta fasldan iborat. Bobning birinchi fasli *“O‘zbek xalq tafakkurida sonlarning lingvokulturologik mohiyati”* deb nomlanadi. Ushbu faslda lingvokulturologiyaning nazariy asoslari, konsept tushunchasining mazmuni va o‘zbek xalq tafakkurida sonlarning ramziy-madaniy mohiyati aniq misollar asosida ilmiy tarzda yoritilgan. Lingvokulturologiya tilni “madaniy xotira” hamda “milliy kod” sifatida talqin qiladi va til – tafakkur – madaniyat uchligini uzviylikda o‘rganadi. Bu borada V.A.Maslova lingvokulturologiyani “til va madaniyatning o‘zaro munosabatlarini o‘rganuvchi fan”¹¹ sifatida belgilagan bo‘lsa, Y.S.Stepanov konseptni “madaniyatning konsentrlashgan birligi”¹² sifatida ta’riflaydi. Ushbu qarashlar til va madaniyat aloqadorligini asoslovchi nazariy tayanch sifatida keltiriladi.

Shuningdek, konseptning ikki tarkibiy xususiyati – kognitiv va lingvokulturologik jihatlari alohida ko‘rsatilib, uni milliy qadriyatlarni kodlovchi birlik sifatida talqin etish zarurligi ta’kidlanadi. Bu izoh son konsepti misolida yanada aniq ko‘rinish topadi.

O‘zbek xalq tafakkurida sonlarning ramziy talqini ko‘plab aniq misollar bilan asoslanadi. Masalan, “uch” soni kosmogonik tasavvurlarda “osmon, yer va suv” triadasini anglatishi, shuningdek, “bolalik, o‘rta yosh, qarilik” kabi hayot bosqichlarini ifodalashi dalillangan. Xalq tafakkuridagi “uch” sonining diniy

¹¹ Маслова В. А. Лингвокультурология. Введение: учебник для вузов. – Москва: Издательство Юрайт, 2025. – С. 45. – URL: <https://urait.ru/bcode/564014>

¹² Степанов Ю.С. Константы: словарь русской культуры // Юрий Степанов. – 2. изд., испр. и доп. – Москва: Акад. проект, 2001. – С. 40.

asoslari ham keltiriladi: hadisda uch narsani kechiktirmaslik zarurligi (“namoz vaqti, janoza, qarzni ado etish”¹³) tilga olinishi bu sonning axloqiy mazmun kasb etganini ko‘rsatadi.

“Yetti” sonining ramziy talqini matnda juda ko‘p misollar orqali berilgan. Xususan, Qur’onda uchraydigan “yetti qat osmon” tushunchasi bilan bog‘liq ravishda o‘zbek urf-odatlarida “yangi tug‘ilgan chaqaloqqa yetti kun ichida ism qo‘yish”, marhumni “yettinchi kuni xotirlash” kabi marosimlar keltiriladi. Xalq maqollaridagi “Yetti o‘lchab, bir kes” birikmasi esa sonlarning axloqiy-me‘yoriy mazmunni umumlashtirishdagi o‘rnini ko‘rsatadi.

“Qirq” soni o‘zbek xalqining marosimiy amaliyotida alohida o‘rin tutadi. Chaqaloq tug‘ilgach “qirq kunlik chilla” marosimi o‘tkaziladi, marhum esa “qirqinchi kuni xotirlanadi”. Shuningdek, “Qing‘ir ishning qiyig‘i qirq yildan keyin ham chiqadi” maqolining tahlili orqali bu sonning vaqt, adolat va voqelikning muqarrarligini ifodalovchi ramziy birlik sifatidagi o‘rni yoritilgan.

Sonlarning diniy manbalardagi ko‘rinishlari ham misollar asosida ochib berilgan. Masalan, Qur’onda Muso alayhissalomga oid “o‘n ikki chashma” haqidagi oyat yoki hadisda zikr qilingan “qirq kun ixlos bilan amallarni bajarish”¹⁴ning fazilati, shuningdek, “yetmish marta mag‘firat so‘rash”¹⁵ kabi birliklar sonlarga yuklangan ma‘naviy mazmunni asoslaydi.

Umuman olganda, ushbu qismdagi sonlarning lingvokulturologik tahlili milliy identitet, axloqiy me‘yorlar va qadimiy dunyoqarashning tildagi ifodasini ilmiy asosda ochib berishga imkon yaratadi.

Bobning ikkinchi fasli *“O‘zbek xalq maqollarida sonlar milliy-madaniy kod sifatida”* deb nomlanadi. Maqollardagi sonlarni lingvomadaniy kod sifatida o‘rganishning ahamiyati shundaki, ular milliy madaniyatning mental modelini tiklash imkonini beradi. Chunki xalq ongida sonlar faqat hisob vositasi emas, balki metaforik va assotsiativ ma‘nolarning markazi sifatida ham shakllangan.

O‘zbek xalq maqollarida “bir” soni *ontologik, axloqiy-didaktik, ijtimoiy, pragmatik va estetik kod* sifatida faoliyat yuritadi. U orqali xalqning mavjudlik haqidagi qarashlari, birdamlik va birlik qadriyatlari, ijtimoiy kuzatuvchanlik, mehnat tajribasi va axloqiy me‘yorlari ramziy tarzda kodlanadi. Shuningdek, maqol tarkibida “bir” sonining boshqa sonlar bilan oppozitsiyasi quyidagicha izohlangan:

“Ikki” soni bilan: “Bir qo‘llab sohasan, ikki qo‘llab o‘rasan” maqolida “bir” mehnatning boshlang‘ich jarayonini, “ikki” esa jamoaviy kuch va unumdorlikni anglatadi.

“Ming” soni bilan: “Bir” soni xalq tafakkurida boshlang‘ich nuqta, asos, yagona birlikni bildirsa; “ming” esa ko‘plik, mo‘l-ko‘llik, cheksizlik, baraka ma‘nolari bilan bog‘lanadi: “Olgan – bir yozig‘lik, oldirgan – ming yozig‘lik”.

“Bir” va katta sonlar (“o‘n”, “o‘ttiz”, “qirq”, “ellik”, “yuz”, “ming”) qiyosida. Maqollarda “bir” ko‘pincha kichik, ammo mazmunan muhim birlikni

¹³ Ibn Moja. Sunan ibn Majah. – Qohira: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2009. – Hadis № 689.

¹⁴ At-Tirmiziy. Jami‘ at-Tirmidhi. – Bayrut: Dar Ihya at-Turath, 1998. – Hadis № 241.

¹⁵ Qur‘oni Karim ma‘nolarining tarjimasini / A. Mansur. Qur‘on Karim. at-Tavba (9:80). – Toshkent: “Hilol-Nashr”, 2020. – 136-138-6.

ifodalab, katta sonlar bilan qiyosda nisbiylik va kuchli kontrast yaratadi: “Bir yigit qirq yilda bino bo‘ladi”.

“Bir” va o‘rta sonlar (“uch”, “to‘rt”, “yetti”, “sakkiz”) qiyosida. Bu guruhdagi maqollarda “bir” soni ko‘pincha asosiy mezon, boshlang‘ich nuqta yoki zarur shart sifatida namoyon bo‘ladi: “Yetti o‘lchab, bir kes”.

“Bir” va vaqt birliklari (kun, yil) qiyosida. Vaqt konseptini ifodalovchi maqollarda “bir” soni xalqning vaqtni qadrlash haqidagi qarashlarining lingvomadaniy kodi sifatida xizmat qiladi: “Bir kun – bir yilni to‘ydirdir”.

O‘zbek xalq maqollarida “ikki” soni milliy tafakkurda mavjud qarama-qarshilik, tanlov, hamkorlik, barqarorlik va muvozanat tushunchalarini mujassamlashtiruvchi lingvomadaniy kod vazifasini bajaradi.

1. *Qarama-qarshilik va tanlov kodi.* “Ahmoqning zo‘ri bir joyga ikki qoqiladi”, “Bir yaxshi – har joyda bor, ikki yomon bir bo‘lsa, kun qayda bor?”

2. *Hamkorlik va birlik kodi.* “Qars ikki qo‘ldan chiqadi”, “Ikki kalla ishga tushsa, har qanday masala hal”.

3. *Barqarorlik va muvozanat kodi.* “Ikki yarim – bir butun”, “Ikki qilich bir qinga sig‘mas, ikki sevgi bir ko‘ngilga sig‘mas”.

4. *Axloqiy-me‘yoriy kod.* “Bir qazoga ikki jazo yo‘q”, “So‘raganning bir beti qora, bermaganning ikki beti qora”.

5. *Hayotiy tajriba va vaqt kodi.* “Bir kunga ho‘kiz o‘lmas, ikki kunga egasi bermas”, “Bir ko‘rgan – bilish, ikki ko‘rgan – tanish”.

6. *Ijtimoiy munosabatlar kodi.* “Ikki sigir sog‘ganning ayroni bor, ikki xotin olganning vayroni bor”, “Ikki xotinli uy – janjalning uyasi”.

“Uch” soni o‘zbek xalq maqollarida vaqtning davriyligi, ijtimoiy me‘yor, axloqiy qadriyat, barqarorlik, hamda diniy-ma‘naviy timsollarni mujassam etuvchi lingvomadaniy kod sifatida faol qo‘llanadi.

Barqarorlik va mukammallik kodi sifatida “uch” soni tabiiy davriylik, vaqt va takroriylik bilan bog‘liq: “Uch kun barvaqt turgan – bir kun yutar”.

Qisqa muddat kodi sifatida “uch” ko‘pincha mehmonga oid maqollarda namoyon bo‘ladi: “Qo‘noqning kuni – uch, Uchdan keyin – ko‘ch”.

Ko‘plik va ijtimoiy ochiqlik kodi sifatida “uch” soni sirning oshkor bo‘lishi yoki jamoatchilik bilan bog‘lanadi: “Uch kishi bilgan sir – sir emas”.

Qiyosiy-axloqiy kod sifatida “uch” yaxshilik va yomonlik, foyda va zarar, qadriyat va qadrsizlikni solishtirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi: “Echking yuz – so‘zing tuz, Echking uch – so‘zing puch”.

Hayotiy tajriba kodi sifatida “uch” insoniy faoliyat va qadriyatlar tizimida doimiy uchraydi: “Onangni uch marta Makkaga opichib olib borsang ham, oq sutini oqlolmaysan”, “Ot bir bosgan yerini uch bosar”.

Marosimiy va diniy kod sifatida “uch” soni muqaddas tushunchalar bilan bog‘langan: uch kunlik aza, uch marotaba takrorlash odatlari, uch oylar (rajab, sha‘bon, ramazon) xalq ongida diniy-madaniy ramz sifatida mustahkam o‘rnashgan. Masalan, “Uyatliga uch kun hayit, uyatsizga har kun hayit”.

Shu tariqa ushbu bo‘limda o‘ndan kichik sonlar hamda “qirq”, “yuz”, “ming” komponentli maqollarning tarkibida namoyon bo‘ladigan lingvomadaniy kodlar izchil va tizimli tarzda alohida-alohida tahlil qilingan.

Bobning uchinchi fasli “*Son komponentli maqollarning lingvomadaniy funksiyalari*” tahliliga bag‘ishlanadi. Lingvokulturologik yondashuvga ko‘ra, son komponentli maqollar xalqning milliy-madaniy tajribasini, ijtimoiy me‘yorlarini va qadriyatlarini kodlagan birliklar sifatida talqin etiladi. Bu jarayonda sonlar *semantik kengayish, madaniy referensiya, ijtimoiy-diskurs, didaktik-tarbiyaviy* hamda *kognitiv urg‘u* berish funksiyalarini bajaradi. Masalan, “Bir gapdan qolsang – olam guliston” maqolida “bir” soni murosa va sabr g‘oyasini ifodalovchi didaktik kod sifatida qo‘llanadi.

Oilaviy qadriyatlarni ifodalovchi maqollarda son komponentlari ko‘pincha oilaviy rollar, majburiyatlar va mehr-oqibatni belgilovchi ramz sifatida qo‘llanadi. Masalan, “Otasiz o‘g‘il – bir yetim, onasiz o‘g‘il – ikki yetim” maqolida “bir” va “ikki” sonlari orqali ota-onaning oilaviy hayotdagi o‘rni va ahamiyati ta’kidlanadi. *Jamiyatga oid* maqollarda sonlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi me‘yoriy ramz sifatida xizmat qiladi. Bunda “bir” soni ko‘pincha individual mas’uliyatni, “ko‘p” yoki “ming” kabi yirik sonlar esa jamoa, hamjamiyatni ifodalaydi. Masalan, “Sherikchilik – bir yillik, qudachilik – ming yillik” maqolida “bir” va “ming” sonlari jamiyatdagi ijtimoiy aloqalarning davomiyligini ramziy ifodalaydi. *Mehnat sohasiga oid* maqollarda son komponentlari mehnatning ijtimoiy foydasi, resurslar taqsimoti va mehnatning iqtisodiy qadriyatlarini ifodalash uchun qo‘llanadi. Masalan, “Bir odam ariq qaziydi, ming odam suv ichadi” maqolida individual mehnatning umumiy manfaatga xizmat qilishi sonlar orqali ramziy ko‘rsatiladi.

Sonli maqollar xalqning ijtimoiy hayotida nafaqat miqdoriy belgi, balki *gender rollari* va *yosh davrlarini* belgilovchi lingvomadaniy kod sifatida xizmat qiladi. “O‘g‘il uylantirganga o‘n yil yondashma, qiz chiqarganga qirq yil yondashma” maqolida “o‘n” va “qirq” sonlari gender farqlanishi asosida qo‘llanadi: o‘g‘ilning turmush qurishi ota-ona uchun qisqa muddatli mas’uliyat bo‘lsa, qizning turmushga chiqishi uzoq davom etadigan ijtimoiy mas’uliyat sifatida talqin qilinadi. “Bola yettiga kirguncha yetmish turlanadi” maqolida esa “yetti” va “yetmish” sonlari yordamida bolaning ilk yosh davrida o‘zgaruvchanligi, har xil xatti-harakatlari ta’riflanadi.

O‘zbek xalq maqollarida sonlar ko‘pincha *axloqiy mezon, didaktik ogohlantirish* va *tarbiyaviy ko‘rsatma* vazifasini bajaradi. Masalan, “Bir qop moyni bir qumaloq chiritar” maqolida “bir” soni axloqiy-didaktik ogohlantirish vositasi sifatida kelgan. U jamiyatda birgina yomon odat yoki kishi butun bir muhitni buzishi mumkinligini eslatadi. Bu tarbiyaviy jihatdan halollik, tozalikka rioya qilish va yomon odatlardan yiroq bo‘lishga chorlaydi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**Son komponentli maqollarning statistik tahlili**” deb nomlanib, uch fasldan tashkil topgan. Bobning birinchi fasli “*Son komponentli maqollarni statistik jihatdan o‘rganishning nazariy asoslari*” deb nomlanadi. Statistik metod tilshunoslikda nisbatan yangi, ammo samarali ilmiy yondashuvlardan biridir. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab til hodisalarini faqat tavsifiy yo‘l bilan emas, balki matematik va statistik modellar asosida o‘rganish zarurati paydo bo‘ldi. Chunki til tizimi – bu katta hajmdagi birliklarning

tartibli va takrorlanuvchi ko‘rinishidir; uni miqdoriy ko‘rsatkichlarsiz o‘rganish to‘liq ilmiy tasavvur hosil qilishga imkon bermaydi.

Raqam komponentli maqollarni statistik tahlil qilish jarayonida bir necha ilmiy mezonlar ishlab chiqiladi va ularga qat’iy amal qilinadi. *Birinchi mezon – raqam komponentining mavjudligi va mustaqil semantik yuklamasi.* Maqol tarkibidagi son faqat grammatik belgi sifatida emas, balki semantik markaz sifatida ishtirok etgan hollarda tahlilga olinadi. “Bir bosh – balo bosh, ikki bosh – qozon osh” maqolida “bir” semantik jihatdan yolg‘izlik va muammolilik, “ikki” esa hamjihatlik va baraka ma’nosida kelgan. *Ikkinchi mezon – raqamning morfologik ko‘rinishi va struktur o‘rni.* Maqollarda sonlar ba’zan o‘zgarmas (*bir, ikki, uch*), ba’zan esa hosila shaklda (*ikkov, to‘rtovlon, mingta*) ifodalanadi. Tahlilda sonning aniq yoki noaniq miqdor bildirishi, shuningdek, aniqlik darajasi e’tiborga olinadi¹⁶. “Bir odam ariq qaziydi, ming odam suv ichadi” – [son + ot] birikmasi bilan subyekt-harakat-natija strukturasi hosil qilingan. *Uchinchi mezon – maqolning turlari va variantlilik.* Ayrim maqollar bir necha variantda uchrashi mumkin: masalan, “Bir qo‘ydan ikki teri shilinmaydi” / “Bir odamdan ikki foyda chiqmaydi”.

Bobning ikkinchi fasli “*Raqam komponentli o‘zbek xalq maqollarining umumiy chastota tahlili*” deb nomlanadi. O‘zbek xalq maqollarining semantik va lingvokulturologik tizimini tahlil etishda son komponentlarining ishlatilish chastotasini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Chastota tahlili xalq tafakkurida qaysi sonlar faolroq qo‘llanilishini, ularning ramziy va ma’no yukini ko‘rsatadi. Tadqiqot jarayonida 1 dan 1000 gacha bo‘lgan son ishtirok etgan jami 860 ta maqol tahlil qilindi. Maqollar “Ma’nolar maxzani”, “O‘zbek xalq maqollari” (Toshkent, 1987), “Hikmatnoma” to‘plamlari hamda xalq og‘zaki ijodi manbalaridan tanlab olindi.

Har bir maqolda son komponentining ishtiroki alohida ro‘yxatga olinib, qayta ishlanib, chastota (frekventsiya) tahlili amalga oshirildi. Quyidagi jadvalda o‘zbek xalq maqollarida sonlarning uchrash chastotasi keltirilgan:

“4.1-jadval”.

Son komponentli o‘zbek xalq maqollarining chastota taqsimoti

№	Son komponenti	Maqollar soni	Umumiy ulushi (%)
1	Bir (1)	409	47.6 %
2	Ikki (2)	128	14.9 %
3	Uch (3)	20	2.3 %
4	To‘rt (4)	17	1.9 %
5	Besh (5)	22	2.6 %
6	Olti (6)	29	3.4 %
7	Yetti (7)	31	3.6 %
8	Sakkiz (8)	17	1.9 %
9	To‘qqiz (9)	9	1.0 %

¹⁶ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1966. – С. 241–243.

№	Son komponenti	Maqollar soni	Umumiy ulushi (%)
10	O'n (10)	25	2.9 %
11	Yigirma (20)	1	0.1 %
12	O'ttiz (30)	8	0.9 %
13	O'ttiz ikki (32)	4	0.5 %
14	Qirq (40)	29	3.4 %
15	Ellik (50)	9	1.0 %
16	Oltmish (60)	5	0.6 %
17	Yetmish (70)	8	0.9 %
18	Sakson (80)	7	0.8 %
19	To'qson (90)	5	0.6 %
20	Yuz (100)	25	2.9 %
21	Ming (1000)	57	6.6 %
	Jami:	860	100 %

Yuqoridagi jadvalda o'zbek xalq maqollarida qo'llanilgan son komponentlarining foizli taqsimoti ularning xalq tafakkuridagi faollik darajasi va semantik yuklamasini aniq ko'rsatadi. 860 ta maqolning tahlili shuni ko'rsatadiki, sonlarning qo'llanish chastotasi o'zaro keskin farq qiladi, bu esa ularning psixolingvistik va lingvomadaniy ahamiyatining turlicha ekanidan dalolat beradi.

- 1. Eng yuqori chastotali sonlar:** “bir”, “ikki”, “ming”.
- 2. O'rta chastotali sonlar:** “yetti”, “olti”, “qirq”, “yuz”, “o'n”, “besh”.
- 3. Past chastotali sonlar:** 3–9, 30–90 oraliqdagi birliklar.
- 4. Eng kam uchragan sonlar:** “yigirma”, “o'ttiz ikki”.


Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, eng yuqori chastotali sonlar xalq tafakkuridagi semantik markazni tashkil etadi. O'rta chastotali sonlar ramziy va marosimiy vazifani bajaradi. Past chastotali sonlar aniq tasviriy miqdorni ifodalaydi, psixologik va axloqiy yuklamasi kuchsiz. Sonlarning chastotasi ularning semantik va kognitiv yuki bilan bevosita bog'liq.

Bobning uchinchi fasli “*Son komponentli maqollarning struktur-tipologik statistikasi*” deb nomlanadi. Til birliklarining struktur joylashuvi ularning semantik yukini, sintaktik rolini hamda stilistik ta'sir kuchini belgilovchi muhim omillardan biridir. Maqol strukturasi son komponentlari turli sintaktik o'rinlarda – bosh qismda, o'rta qismda va oxirgi o'rinda joylashishi mumkin. Har bir joylashuv turi o'ziga xos pragmatik va semantik vazifani bajaradi. Masalan, sonning *maqol boshida* kelishi odatda butun fikrni tayanch ma'no atrofida markazlashtirishga xizmat qiladi: “Bir bosh – balo bosh”, “Ikki sevgi bir yurakka sig'mas”. Bunday holatda son tematik markaz vazifasini bajaradi, ya'ni u mazmuniy yo'nalishni belgilaydi. Sonning *maqol o'rtasida* kelishi esa komparativ, sabab-natija yoki o'xshatish konstruksiyalarida ko'p uchraydi. Bu pozitsiyada sonlar ikki yoki undan ortiq komponentni bog'lovchi semantik ko'priq vazifasini bajaradi: “Do'sting ming bo'lsa ham oz, dushmaning bir bo'lsa ham ko'p”, “Eshigidan qarasam – bir jinni, tuynugidan qarasam – bari

jinni”. Shunday tarzda, son maqol o‘rtasida fikr kontrasti, miqdoriy nisbat yoki mantiqiy taqqoslashni ifodalaydi. Sonning *maqol oxirida* kelishi esa, odatda, natijaviy, yakuniy, umumlashtiruvchi ma’noni kuchaytiradi: “Poraxo‘rning ko‘zi beshta, qo‘li – to‘rtta”, “So‘z – bir, sayqal – qirq”. Bunday pozitsiyada son ma’noni yakunlovchi va mantiqiy urg‘u beruvchi birlik sifatida nutq ohangini tugallaydi.

Maqollar strukturasi nuqtayi nazaridan qaranganda, bosh pozitsiyada kelgan sonlar, odatda, predikativ markazni oldindan belgilaydi. Ular tinglovchini asosiy mazmun yo‘nalishiga tayyorlaydi va maqolning ritmik-informatsion tuzilishini shakllantiradi. Bunday maqollar odatda imperativ yoki deklarativ ohangda bo‘ladi, bu esa ularga umumlashtiruvchi va pandnoma xarakterini beradi.

860 ta sonli maqollar orasida boshida son komponenti bilan boshlanadigan maqollar soni 362 tani tashkil etadi. Bu esa umumiy maqollarning 42,1 foiziga teng bo‘lib, o‘zbek xalq maqollarida sonning bosh pozitsiyada qo‘llanishi tildagi an’anaviy, mantiqiy va psixolingvistik ustunlikka ega ekanini ko‘rsatadi.



“4.1-rasm”. Maqol boshida son komponentlarining qo‘llanish chastotasi

O‘zbek xalq maqollarida son komponentlarining o‘rta pozitsiyada qo‘llanishi ularning struktur-semantik dinamizmini namoyon etadi. Bunda sonlar odatda ikkita voqelikni, harakatni yoki bahoni bog‘lovchi vosita sifatida chiqadi. Maqol o‘rtasidagi son komponenti taqqoslash, kuchaytirish, shartlilik ma’nolarini ifodalab, mazmuniy nuqtaning ritmik markaziga aylanadi.


Tahlil natijalariga ko‘ra, 860 ta maqoldan 447 tasi (52%) da son komponenti maqol o‘rtasida joylashgan. Quyidagi jadvalda sonlar bo‘yicha taqsimot ko‘rsatilgan:

“4.2-jadval”.

Son komponentlarining maqol o‘rtasida qo‘llanishi

	Son komponenti	Maqol o'rtasida kelgan soni	Umumiy ulushi (%)
1	Bir (1)	202	23.5 %
2	Ikki (2)	53	6.2 %
3	Uch (3)	13	1.5 %
4	To'rt (4)	9	1.0 %
5	Besh (5)	7	0.8 %
6	Olti (6)	18	2.1 %
7	Yetti (7)	23	2.7 %
8	Sakkiz (8)	10	1.2 %
9	To'qqiz (9)	5	0.6 %
10	O'n (10)	11	1.3 %
11	Yigirma (20)	1	0.1 %
12	O'ttiz (30)	4	0.5 %
13	O'ttiz ikki (32)	3	0.3 %
14	Qirq (40)	20	2.3 %
15	Ellik (50)	7	0.8 %
16	Oltmish (60)	0	0.0 %
17	Yetmish (70)	7	0.8 %
18	Sakson (80)	2	0.2 %
19	To'qson (90)	1	0.1 %
20	Yuz (100)	10	1.2 %
21	Ming (1000)	41	4.8 %
	Jami:	447	52.0 %

O'zbek xalq maqollarida son komponentlarining maqol oxirida kelishi, miqdoriy birliklarning yakuniy baho, natija yoki umumlashtirish vositasi sifatida ishlatilishidan dalolat beradi. Tahlil natijasiga ko'ra, 860 ta maqoldan 51 tasi (5,9%) son bilan yakunlangan bo'lib, bu holat xalq tafakkuridagi fikrni son orqali tugal shaklda berish an'anasini namoyon etadi. Keltirilgan 51 ta maqolda son komponentlari maqolning oxirgi pozitsiyasida kelish holatlari ko'proq ritmik tugallanish, ta'kid va umumlashtirish maqsadida ishlatilganini ko'rish mumkin.



“4.2-rasm”. Son komponentlarining maqol strukturasidagi joylashuvi

Maqol strukturasi ichida eng katta ulush – maqol o‘rtasidagi (52% / 447 ta) son komponentlariga to‘g‘ri keladi. Bu holat sonlarning: taqqoslash, qarama-qarshilik va sabab – natija munosabatlarini ifodalashini; gap bo‘laklarini mantiqan bog‘lovchi markaz sifatida chiqishini ko‘rsatadi.

Tahlil natijasi shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalq maqollarida son komponentining pozitsional joylashuvi fikrning struktur va semantik shakllanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi: Bosh pozitsiya – sonning mantiqiy yetakchi va kognitiv signal vazifasini bajaradi. O‘rta pozitsiya – fikrlararo muvozanat va taqqoslashning asosiy o‘qidir. Oxirgi pozitsiya – yakunlovchi, baholovchi va esda qolarli urg‘u funksiyasini bajaradi.

Demak, son komponentlari maqol tuzilishida nafaqat miqdoriy ifoda vositasi, balki semantik markaz, ritmik barqarorlik va psixolingvistik ta‘sir omili sifatida faol ishlatilgan. Bu esa o‘zbek xalq maqollarining struktur-kompozitsion mukammalligi, ta‘sirchanligi va madaniy ramziy tizimini ochib beradi.

XULOSA

1. Son komponentli maqollar o‘zbek xalq tafakkurining universal semantik tizimini ifodalaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalq maqollarida sonlar faqat miqdoriy birlik emas, balki xalq tafakkurining kognitiv, falsafiy va ma‘naviy kodlari sifatida namoyon bo‘ladi. Ular xalq tafakkuridagi qadimiy konseptlar – birlik, to‘liqlik, muvozanat, cheksizlik va marosimiy timsollarning til tizimidagi lingvosemantik in‘ikosi hisoblanadi.

2. O‘zbek paremiologiyasida sonlar tildagi denotativ va konnotativ ma‘no qatlamlarini birlashtiruvchi omil sifatida shakllangan. Denotativ qatlam sonlarning aniq miqdoriy va mantiqiy mohiyatini ifodalasa, konnotativ qatlam ularni ramziy, metaforik va madaniy ma‘nolarda boyitadi. Shu bois o‘zbek tilidagi sonli maqollar xalq tafakkurining nafaqat kvantitativ, balki kvalitativ (mazmuniy) tafakkur modelini ham ifodalaydi.

3. O‘zbek tilidagi son komponentli maqollar xalq tarixining turli bosqichlarini aks ettiruvchi lingvokulturologik qatlam sifatida shakllangan. Ularning semantik evolyutsiyasi uch bosqichda kechgan: arxaik (mifologik–turkiy), islomiy-marosimiy va ijtimoiy-axloqiy davrlar. Har bir bosqichda sonlar xalqning diniy, ijtimoiy va estetik qarashlarini til orqali ifodalovchi semiotik belgilar tizimiga aylangan.

4. Son birliklari o‘zbek xalqining kognitiv konseptosferasida muhim semantik markazlarni tashkil etadi. “Bir”, “ikki”, “uch”, “yetti”, “qirq” va “ming” sonlari xalq ongida universal konseptlar sifatida mustahkamlangan. “Bir” – birlik va mezon; “ikki” – dualizm va muvozanat; “uch” – to‘liqlik; “yetti” – muqaddaslik; “qirq” – hayot davri va sinov; “ming” – mubolag‘a va baraka ramzi sifatida faol ishlatiladi.

5. Sonli maqollar struktur-semantik jihatdan ko‘p qatlamli bo‘lib, ularning tahlili xalq tafakkurining mantiqiy tuzilishini ochib beradi. Tadqiqotda aniqlanishicha, maqollar strukturasi son komponentlari boshida (42,1%), o‘rtasida (52%) va oxirida (5,9%) joylashadi. Ushbu pozitsion taqsimot sonlarning

semantik urg'u va kommunikativ yuklama jihatdan farq qilishini ko'rsatadi: bosh pozitsiya – e'tibor markazi, o'rta – taqqoslovchi bog'lovchi, oxirgi – yakuniy baho vazifasini bajaradi.

6. Son komponentlari paremiologik birliklarda pragmatik va ekspressiv yuklamani oshiruvchi vosita sifatida amal qiladi. Ular fikrni aniqlashtiradi, hukmni kuchaytiradi va obrazni jonlantiradi. Shu bois sonli maqollar nutqning ritmik, antitezali va parallel tuzilishini shakllantirib, xalq og'zaki ijodining poetik struktura tizimini mustahkamlaydi.

7. Lingvokulturologik tahlillar sonlarning milliy identitet va madaniy xotira bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Sonlar xalqning urf-odatlarini, marosimlari, diniy qarashlari va ijtimoiy qadriyatlarini kodlaydi. Ular milliy ong, axloqiy me'yori va kognitiv xotiraning tilda aks etgan shakli sifatida xalq madaniy o'zligini ifodalaydi.

8. Son komponentlarining chastota taqsimoti ularning konseptual faollik darajasini belgilaydi. 860 maqol tahliliga ko'ra, "bir" soni 47,6% bilan eng yuqori chastotali birlik bo'lib, xalq tafakkurida asosiy semantik yadroni tashkil etadi; "ikki" (14,9%) – zidlik va sheriklik; "ming" (6,6%) – mubolag'a va cheksizlik; "yetti", "qirq", "yuz" kabi sonlar esa madaniy barqarorlikni ifodalovchi elementlardir.

9. Son komponentlari semantik jihatdan tematik tizimlar bilan uyg'unlashadi. O'zbek maqollarida sonlar axloqiy-me'yoriy, ijtimoiy, mehnat, vaqt, aql, muhabbat, oila va taqdir kabi semantik sohalarda qo'llanib, xalq dunyoqarashining ijtimoiy-falsafiy asoslarini mustahkamlaydi. Bu esa sonlarning kognitiv konseptual tarmoqlarini aniqlash imkonini berdi.

10. Lingvostatistik yondashuv son komponentlarining semantik va funksional barqarorligini matematik asosda isbotladi. Sonlarning chastotasi, pozitsion joylashuvi va struktur-funksional faoliyati statistik tahlil orqali aniqlanib, o'zbek maqollarining kognitiv- semantik modeli ilmiy jihatdan asoslab berildi. Natijada, sonlar xalq tafakkuridagi semantik markaz va kommunikativ dinamikani ifodalovchi o'lchovga aylandi.

11. Son komponentli maqollar o'zbek xalqining psixolingvistik tafakkur modelini ochib beradi. Son birliklari inson idroki uchun eng qulay mantiqiy kategoriyalar sirasiga kiradi. Ular fikrni ixchamlashtiruvchi, xotirada saqlanishni yengillashtiruvchi va baholashni aniqlashtiruvchi kognitiv birlik sifatida nutq ishlab chiqarish jarayonida faol ishlatiladi. Shu bois sonli maqollar xalq tafakkurining psixologik asoslarini yoritadi.

12. Tadqiqot natijalari o'zbek paremiologiyasida yangi ilmiy metodologik yo'nalishni shakllantirdi. Son komponentli maqollarni semantik, lingvokulturologik va lingvostatistik yondashuvlar sintezi asosida o'rganish orqali xalq og'zaki ijodining til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqligi ilmiy asosda isbotlandi. Natijada, o'zbek maqollarining son tizimi xalqning kognitiv-madaniy modeli sifatida qaralib, milliy konseptosfera tarkibida alohida ilmiy maqom kasb etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

САМАНДАРОВА ГУЛНОЗ ЯРАШОВНА

**СЕМАНТИЧЕСКИЙ, ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ И
СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ
ПОСЛОВИЦ С ЧИСЛОВЫМ КОМПОНЕНТОМ**

10.00.01 – Узбекский язык

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора (DSc) ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ наук

Бухара – 2026

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора (DSc) наук)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В развитии современного мирового языкознания антропоцентрическая парадигма, ориентированная на человека как центральный фактор языковой системы, способствовала формированию новых направлений исследования взаимосвязи языка и культуры. Особое место в этом процессе занимает лингвокультурология, рассматривающая язык как отражение исторической памяти народа, его культуры и национальной картины мира, что позволяет выявлять специфические национальные особенности человеческого мышления. С этой точки зрения лингвокультурологический анализ узбекских народных пословиц, в частности пословиц с числовыми компонентами, способствует раскрытию концептуальных основ народного мышления. Изучение символических, эстетических и семантических функций чисел в устном народном творчестве является важным фактором в выявлении мировоззрения узбекского народа, системы его ценностей и моделей национального мышления. В условиях современной глобализации возрастает необходимость всестороннего лингвокультурологического, семантического и статистического изучения пословиц с числовыми компонентами.

В мировом языкознании числовые единицы рассматриваются как важные носители символических, концептуальных и семантических значений языка. Пословицы с числовыми компонентами формируются в национальном сознании как традиционная система символов и создают своеобразные семантические модели, раскрывающие концептуальные категории языка. В связи с этим их лингвокогнитивное, лингвокультурологическое и статистическое исследование позволяет выявить универсальные и национально-специфические особенности народного мышления. Концептуальный анализ пословиц с числовыми компонентами имеет важное значение для освещения взаимосвязи языка и мышления, а раскрытие их содержания становится одной из приоритетных задач современной мировой паремиологии.

В последние годы в Республике Узбекистан уделяется особое внимание вопросам анализа устного народного творчества, в частности пословиц, на лингвокультурологической, когнитивной и статистической основе. Проводимые исследования лексико-семантической системы узбекских народных пословиц, их символического и духовного значения, а также роли чисел в народном мышлении являются важными шагами на пути углубленного изучения национального лингвистического наследия и его интеграции в мировое научное пространство. В этой связи лингвистическое исследование подобных пословиц представляет собой важное научное направление в изучении народного мышления и культуры и является одной из актуальных задач, стоящих перед узбекским языкознанием.

Данное исследование в определённой степени служит реализации задач, определённых в Указах Президента Республики Узбекистан от 21 октября 2019 года № ПФ-5850 “О мерах по коренному повышению авторитета и статуса узбекского языка как государственного языка”, от 20 октября 2020 года № ПФ-6084 “О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране”, от 28 января 2022 года № ПФ-60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы”, от 12 сентября 2023 года № ПФ-158 “О стратегии “Узбекистан – 2030”, а также в Постановлении от 28 июля 2017 года № ПК-3160 “О мерах по повышению эффективности духовно-просветительской работы и выводу развития данной сферы на новый этап” и других нормативно-правовых актах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики. “Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства”.

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации¹. Научные исследования, направленные на изучение паремиологии и паремиологических единиц в антропоцентрическом аспекте, проводятся в ведущих мировых научных центрах и высших учебных заведениях, в том числе в Кембриджском университете, Оксфордском университете, Лондонском столичном университете (Великобритания), Университете Торонто (Канада), Московском государственном университете имени М. В. Ломоносова (Россия), Санкт-Петербургском университете (Россия), Казанском (Приволжском) федеральном университете Республики Татарстан (Россия), Казахском национальном университете (Казахстан), Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, Институте языка, литературы и фольклора Академии наук Республики Узбекистан, Андижанском государственном университете, Бухарском государственном университете (Узбекистан).

В мировом языкознании исследования, формирующиеся на основе антропоцентрической парадигмы, выделились в самостоятельное направление, ориентированное на изучение роли человеческого фактора в языке, а также механизмов языковой репрезентации национального мышления и культурных ценностей. В рамках данного подхода паремиологические единицы – пословицы и поговорки – рассматриваются

¹ Обзор зарубежных научно-исследовательских работ по теме диссертации был осуществлён на основе следующих источников: <https://www.researchgate>, <https://scholar.google.com/>, <https://www.academia.edu/>, <https://www.dissercat.com/>, <https://www.lingvolive.com/ru-ru>, www.dictionary.com, www.merriam-webster.com, <http://elibrary.udsu.ru>, <https://cheloveknauka.com>, www.science.org, www.healthline.com, <https://www.sciencedaily.com/>, www.scientificamerican.com, www.languageguide.org, www.urbandictionary.com

как важный социокультурный компонент языковой системы, в связи с чем проводятся научные исследования, направленные на выявление их лингвокультурологических, социопрагматических и концептуальных оснований.

В современной мировой лингвистике, в частности, следующие направления научных исследований рассматриваются в качестве приоритетных: в институте языкознания Российской академии наук, Белорусском государственном университете, Казанском (Приволжском) федеральном университете, Московском государственном лингвистическом университете, а также в различных научных центрах стран Европы и Азии ведётся научное обсуждение таких вопросов, как межкультурная коммуникативная ценность пословиц, их место в национальной концептосфере, а также языковая репрезентация народного менталитета посредством паремиологического фонда.

Степень изученности проблемы. В мировом языкознании проведены значительные исследования, посвящённые лингвистическому анализу пословиц. В частности, в трудах В.И. Даля, В.Н. Телии, Т.Г. Бочиной, О.А. Аксёя, Г.Д. Сидорковой, В.И. Постоваловой, И.Е. Тимошенко, О.Б. Абакумовой, Н.Р. Байжановой, А.Дандиса, Я.А. Жигариной, Ю.Н. Селиверстовой, М.И. Шаховича, А.П. Даниленко, Р.Эккерта, Х.Джейсона паремии, в частности пословицы, подвергались всестороннему анализу².

В мировом языкознании также имеется значительное количество исследований, посвящённых паремиям и фразеологизмам с участием чисел и числовых компонентов. Данная проблематика нашла отражение в работах Шао Наньсы, С.А. Швачко, С.В. Ольховской, В.Н. Топорова, Н.Бутинова, Д.Д. Войводица, Я.А. Гладских, Н.И. Демьяновича, Л.П.

² Даль В.И. Пословицы русского народа: сб. в 2т. / В.И. Даль – М.: Изд-во “Художественная литература”, 1984. Т. 1. – 383 с.; Т. 2. – 399 с.; Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты / В.Н. Телия. – М.: Школа: Языки русской культуры, 1996. 285 с.; Бочина Т.Г. Контраст как лингвокогнитивный принцип русской пословицы: Автореф. дис. док. филол. наук. – Казань, 2003. – 52 с.; Aksoy O. A. Atasozleri ve Deyimler Sozlugu. I Atasozleri Soz-lugii.-Ankara: Ankara Universitesi Basimevi, 1971. –S.392.; Сидоркова Г.Д. Прагматика паремий: пословицы и поговорки как речевые воздействия: автореф. диссер д-ра филол. наук / Г.Д. Сидоркова Краснодар: 1999. – 53 с.; Постовалова В.И. Лингвокультурология в свете антропологической парадигмы (К проблеме оснований и границ современной фразеологии) // Фразеология в контексте культуры. М.: Языки русской культуры, 1999.; Тимошенко И.Е. Литературные первоисточники и прототипы трехсот русских пословиц и поговорок / И.Е. Тимошенко – Киев: 1897. -174 с.; Абакумова, О. Б. Пословичные концепты в паремическом дискурсе: дис. ... д-ра филол. наук : 10.02.01 и 10.02.19 / О.Б. Абакумова. – Орел, 2013. -375 с.; Байжанова (Ойноткинова), Н. Р. Подходы к изучению пословиц / Н. Р. Байжанова (Ойноткинова) // Гуманитарные науки в Сибири. - 2007. - № 3.; Дандис, А. О структуре пословицы / А. Дандис // Паремиологический сборник. Пословица. Загадка (Структура. Смысл. Текст). Исследования по фольклору и мифологии Востока. - М. : Наука, 1978. – С. 13-34.; Жигарина Е.А. Современное бытование пословиц : вариативность и полифункциональность текстов : автореферат дис. ... канд. филол. наук : 10.01.09 / Е. А. Жигарина- М., 2006. – 25 с.; Селиверстова Е.Н. Русская пословица в паремиологическом пространстве: стабильность и вариативность: лингвистический аспект: автореф. дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.01 / Е. Н. Селиверстова. – Санкт-Петербург, 2010. – 47 с.; Шахович М.И. Русские пословицы и поговорки как исторический источник: (Тезисы диссертации на степень кандидата наук) / Шахович М.И.; Акад. наук СССР. - Ленинград, 1937. - 6 с.; Даниленко А.П. Союзное подчинение в языке русских пословиц и поговорок: Автореф. дис. канд. филол. наук. Л., 1973. - 20 с.; Eckert R. Aktuelle Probleme der Phraseologieforschung // Aktuelle Probleme der Phraseologie. Leipzig: Enzyklopadie, 1976. - S.24-46; Jason H. Proverbs in Society: The Problem of Meaning and Function // Proverbium. Bulletin d'information sur ies recherches paremiologique? Helsinki, 17, 1971. - P. 18-32.

Донец, Л.П. Смита, К.А. Меннингера, Э.А. Найды, В.В. Горбасевича, М.А. Бирюковой, Ю.В. Боппа, Л.Р. Гизатуллиной, В.В. Дубровской, С.А. Жаботинской, Н.Л. Жуковской, А.Б. Карасёва, М.М. Маковского, М.А. Пшибиевой, В.Н. Топорова, О.А. Давыдовой³.

В последние годы в узбекском языкознании исследования, посвящённые пословицам, нашли отражение в диссертационных работах Х.Абдурахмонова, М.Садриддиновой, Б.Жураевой, Д.Турдалиевой, Д.Тошевой, Ш.Каландарова, Ю.Нуровой, М.Ж.Шариповой⁴. Непосредственно анализ пословиц с числовыми компонентами

